



Tadqiqot.uz



ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

# O'ZBEKISTONDA ILMIY TADQIQOTLAR: DAVRIY ANJUMANLAR

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022



2022

IYUL

№42



CONFERENCES.UZ

Toshkent shahar, Amir  
Temur ko'chasi, pr.1, 2-uy.



+998 97 420 88 81

+998 94 404 00 00



[www.taqiqot.uz](http://www.taqiqot.uz)

[www.conferences.uz](http://www.conferences.uz)



**ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ  
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ  
АНЖУМАНЛАР:  
11-ҚИСМ**

---

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ  
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ  
КОНФЕРЕНЦИЙ:  
ЧАСТЬ-11**

---

**NATIONAL RESEARCHES OF  
UZBEKISTAN: CONFERENCES  
SERIES:  
PART-11**

**ТОШКЕНТ-2022**



УУК 001 (062)  
КБК 72я43

**“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]**

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 42-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 июль 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 11 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиши ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишлиланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илгор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

**Масъул муҳаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

**1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши**

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

**2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

**3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар**

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

**4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

**5.Давлат бошқаруви**

Доцент Шакирова Шохигда Юсуповна «Тараққиёт стратегияси» маркази муҳаррири

**6.Журналистика**

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

**7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



**8.Адабиёт**

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

**9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни**

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

**10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар**

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

**11.Жисмоний тарбия ва спорт**

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

**12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш**

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

**13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**

Бобоҳонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

**14.Тасвирий санъат ва дизайн**

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**15.Мусиқа ва ҳаёт**

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

**17.Физика-математика фанлари ютуқлари**

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

**18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

**19.Фармацевтика**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**20.Ветеринария**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**21.Кимё фанлари ютуқлари**

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



**22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар**

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

**23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари**

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар**

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**25.География**

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

*Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулdir.*

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

**Контакт редакций научных журналов.** tadqiqot.uz  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz**

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

**ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ВА СПОРТ**

<b>1. Mirzayev Bekzod Imamovich</b>	
JISMONIY MADANIYAT TARBIYANING TARKIBIY QISMI .....	7
<b>2. Qodiraliyev Abdullaziz Burhonali o'g'li</b>	
O'QUVCHILARNI JISMONIY TARBIYALASH .....	9



## ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ВА СПОРТ

### JISMONIY MADANIYAT TARBIYANING TARKIBIY QISMI

Mirzayev Bekzod Imamovich

Surxondaryo viloyati Uzun tumani

3 – KBFCHO’MIMI jismoniy tarbiya fani o’qituvchisi

**Annotatsiya:** ushbu maqolada o’quvchilarda jismoniy madaniyat tarbiyaning tarkibiy qismi, jismoniy tarbiyaning maqsadlari haqida yoritilgan.

**Kalit so’zlar:** jismoniy madaniyat asosiy maqsadi, aqliy va jismoniy mehnat.

Bizning ota-bobolarimiz kishilar bilan uchrashganda yoki xayrashganda avvalo, chin yurakdan mustahkam sog’lik-salomatlik tilashgan. Sihat-salomat bo`lishning qadrini oila qadri bilan sharaflı bir o`ringa qo`yib kelishgan. Respublikamizda bahodirlar, polvonlar va botirlarga boy vatanimiz ular bilan g`ururlangan. Bugun ham Respublikamizning barcha shahar va qishloqlarida jismoniy madaniyat va sport turlarini milliy asosda qayta tiklash jarayoni sodir bo`lmoqda.

Jismoniy tarbiya mazmuni yetarli darajada kengdir. Ularni amalga oshirish yoshlarimizning turmush tarzini, jismoniy madaniyat va sport asosida mazmunli shakllanishini ta`minlaydi. Yuqorida sifatlar, doimiy mashqlar asosida har bir shaxsda o`z badaniga va uning go`zal bo`lishiga intilish, shaxsiy sog`lig`ini jamiyat taraqqiyoti bilan, xalq madaniyati bilan bog`lash sifatlari shakllanadi. Jismoniy tarbiya ta`lim mazmunida ham qaror topadi. Uning vazifasiga o’quvchilarda tanlangan sohaga aloqador ko`nikma va malakalarni shakllantirish, rivojlantirish kiradi. Jismoniy tarbiyaga harbiy tayyorgarlik elementlari ham kiradi. Jismoniy tarbiyani boshqa fanlar orqali ham, xususan, ishlab chiqarish ta`limi orqali ham amalga oshiriladi.

Jismoniy tarbiya sinfdan tashqaridagi tarbiyaviy ishlarda ham amalga oshiriladi. Jismoniy madaniyat-sport ishlari yoki oddiy sport sho`balari, klublari, guruhli yoki ommaviy musobaqalar va hokazolarda namoyon bo`ladi. Jismoniy tarbiya bo`yicha o’quvchilar bilan alohida tarzda ishlash natijasida a`zolari bo`shashib qolgan, jismoniy kamchiligi bor, darsdan ozod bolalarning sog`liklarini tiklash ishlari olib boriladi. Ikkinci ma`noda jismoniy qobiliyatli bolalarning qiziqish va intilishlarini hisobga olib ham alohida mashg`ulotlar yo`lga qo`yiladi. Ayrim qobiliyatli bolalar, maktab va boshqa o`quv yurtlarida o`qish bilan birga ommaviy sport ishlarida ishtirok etib, yuksak natijalarni qo`lga kiritishlari mumkin.

Maktab va kasb-hunar kollejlarida, litseylarda jismoniy tarbiya darslari o’quvchilarning jinsiy farqlariga asoslangan holda, shuningdek, kasb turlariga qarab turli vazifalarni hal etish mumkinligini inkor etmaslik kerak. Masalan, o’quvchi o`g`il bo`lsa unda erkaklik fazilatlari, kuchlilik, aniqlik harakatlarini maromiga sola bilish, dangosalikni bartaraf eta olish, jinsiy etuklik, yaroqlilik shakllantiriladi.

Qizlarda esa harakatlarida muloyimlik, aniqlik, qizlik latofati, qo`rqoqlikni bartaraf eta olish kabi sifatlar qaror toptiriladi.

Jismoniy tarbiya mazmunida «jismoniy mehnat», «jismoniy ta`sir», «jismoniy jazo» va boshqa iboralar ham uchrab turadi. Jismoniy mehnat-aqliy mehnatdan farqli o`laroq insonning jismoniy-kuchi, muskul harakatlari qismlari va boshqalar bilan bog`langandir. Jismoniy mehnat to`g`ri yoki noto`g`ri tashkil etilishiga qarab yoshlarga ijobiy yoki salbiy ta`sir ko`rsatishini unutmaslik lozim. Har qanday sharoitda ham jismoniy mehnat turlarini jismoniy tarbiya mazmuniga kiritilish maqsadga muvofiqdir. Jismoniy ta`sir- bu inson badaniga yo biron-bir buyum bilan, yoki insonlar tomonidan ta`sir ko`rsatishdir. Yaqin vaqtlargacha bu haqida juda oz fikr bildirilgan va uni nopedagogik ta`sir deb kelingan edi.

Pedagogik tajribada o’quvchilarni aqliy faoliyatlarini rag`batlantirish maqsadida jismoniy ta`sir ko`rsatishdan tez-tez foydalandiish mumkinligi isbotlangan. Masalan, bolalarning boshini silash, qo`lini bolalar elkasiga yumshoq qo`yish orqali ruhlantirish, partadagi bolalar yoniga o`tirib hamkorlik bildirish kabilar. Bunday badan tarbiya orqali ta`sir ko`rsatish o’quvchilarning



tarbiyalash darajalari samaradorligini oshiradi, o`qituvchi o`rtasidagi to`siq bartaraf etiladi va osoyishtalik, bir-biriga ishonch qaror topadi. Jismoniy jazo-o`quvchidagi xulqiy kamchilik yoki biron-bir noahloqiy xatti-harakatlarni bartaraf etish maqsadida qo`llaniladi. Bizning maktablarimizda jismoniy jazo bekor qilingan.

Mamlakatimizda jismoniy tarbiya mazmuni yuzasidan yagona «mudofaa va mehnatga tayyorlash» kompleksi tashkil etilgan. Mazkur kompleks 6 darajadan iborat.

- 1) Birinchi daraja «Startga bo`l tayyor» (6-9 yosh)
- 2) Ikkinci daraja «Jasurlar va chaqqonlar» (10-13yosh)
- 3) Uchinchi daraja «Sport o`rinbosarлari» (14-15 yosh)
- 4) To`rtinchi daraja «Kuchlilik va mardlik» (16-18 yosh)

Qolgan 2 darajasi 18 yoshdan ortiq bo`lgan bolalar uchun mo`ljallangan. Agar maktab va bilim yurtining sport bazasi yomon, pedagogik kadrlar bilan yaxshi ta`minlanmagan bo`lsa, yuqorida gilarni amalga oshirish mushkuldir. Ko`rinib turibdiki, jismoniy tarbiya o`z mazmuni va qo`yilishiga ko`ra vazifasi kengdir. U boshqa tarmoqlar mazmuniga kirib, turli vazifalarni ham bajaradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. A.D. Novikov A.P.Matveev jismoniy tarbiya nzaryasi va metodikasi.
2. J. Tolipova N.No'monova Ta'lim – tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar.



## O'QUVCHILARNI JISMONIY TARBIYALASH

**Qodiraliyev Abdullaziz Burhonali o'g'li**

Surxondaryo viloyati Uzun tumani

3 – KBFCHO'MIMI jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** ushbu maqolada o'quvchilarni jismoniy tarbiyalash, jismoniy tarbiyaning maqsadlari haqida yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** jismoniy tarbiyaning asosiy maqsadi, aqliy va jismoniy mehnat.

Jismoniy tarbiyaning asosiy maqsadi – o'quvchilar tanasidagi barcha a'zolarni tabiiy sog'lom o'sishini ta'minlash, ularni aqliy va jismoniy mehnatga shuningdek, vatan mudofaasiga tayyorlashdir.

Bizning ota-bobolarimiz kishilar bilan uchrashganda yoki xayrashganda avvalo, chin yurakdan mustahkam sog'lik-salomatlik tilashgan. Sihat-salomat bo'lishning qadrini oila qadri bilan sharaflı bir o'ringa qo'yib kelishgan. Respublikamizda bahodirlar, polvonlar va botirlarga boy vatanimiz ular bilan g'ururlangan. Bugun ham Respublikamizning barcha shahar va qishloqlarida jismoniy madaniyat va sport turlarini milliy asosda qayta tiklash jarayoni sodir bo'lmoqda.

Sharq Aristoteli nomini olgan Abu Ali ibn Sino ham inson fazilatlaridan quydagilarni sanab ko'rsatgan, chunonchi, jasurlik-biror ishni bajarishda kishining jasurligi, chidamliligi, inson boshiga tushgan yomonlikni to'xtatib turuvchi quvvat. Aqlilik-biror ishni bajarishda shoshma-shosharlik qilishdan saqlovchi quvvat. Ziyaraklik- sezgi bergen narsalarning haqiqiy ma'nosini tezlik bilan tushunishga yordam beruvchi quvvat.

Ilg'or pedagogik tajribalarning ko'rsatishicha, jismoniy tarbiya o'quvchi va o'qituvchilar jamoalarining turmush tarzi va dasturiga aylangandir. Ayniqsa, jismoniy tarbiya daqiqalari, sport va jismoniy tarbiya targ'iboti, ishlab chiqarish ta'limi texnologiyasi va ishlab chiqarish amaliyoti borasidagi yutuqlarni rag'batlantirishda, o'quvchilarning uzoq vaqtgacha ish qobiliyatlarini saqlab turishda, yoshlарimizning jismoniy va fiziologik sifatlarini kasb mazmuniga bog'lash borasidagi dars jarayonlarida ahamiyati beqiyosdir.

She'riyat mulkining sultoni Alisher Navoiy o'zining «Farhod va Shirin» dostonida Farhodning ijobjiy xislatlari ichida, uning jismoniy chiniqanligiga alohida e'tibor beradi va iftixor bilan uning jismoniy qobiliyatlarini maqtaydi. Dostonda yozilishicha Farhod aqliy tarbiya bilangina cheklanib qolmasdan jismoniy va harbiy mashqlar bilan ham shug'ullanib, chiniqa boshlaydi. Suvda suzish, chavondozlik, qilichbozlik va boshqalar uning kundalik mashg'uloti bo'lib qoladi.

Abdulla Avloniyning fikricha, sog'lom fikr yaxshi ahloq, ilm-ma'rifatga ega bo'lish uchun badanni tarbiya qilish zarur. «Badanning salomat va quvvatlari bo'lmosh'i insonga eng kerakli narsadir. Chunki o'qimoq, o'qitmoq, o'rganmoq va o'rgatmoq uchun insonga kuchlik, kasalsiz jasad lozimdir. Sog' badanga ega bo'limgan insonlar amallarida, ishlarda kamchilikka yo'l qo'yurlar.... Bunday tarbiyaning fikr tarbiyasiga ham yordami bordir. Jism ila rux ikkisi bir choponning o'ng ili terisi kabitur. Agar jism tozalik ila ziynatlanmasa, yomon xulqlardan saqlanmasa, choponni ustini qo'yib, astarini yuvib ovora bo'lmak kabiturki, har vaqt ustidagi kiri ichiga uradur. Fikr tarbiyasi uchun mehnat va sog'lom vujud kerakdur».

Sport tufayli o'z kuchi va mahoratini quvonch bilan his etish, tabiat bilan muloqotda bo'lish azaldan kishilar dilini xushnud etgan. Demak, yuqorida misollardan ko'rinib turibdiki, insonning aqliy, ahloqiy va jismoniy kamoloti kishilik tarixi taraqqiyotining barcha jabhalarida ulug'langan, qadrlangan. Jismoniy tarbiya kishilarga qulay ta'sir ko'rsatib, ularning salomatligini mustahkamlaydi, ishslash qobiliyatini oshiradi, uzoq umr ko'rishga yordam beradi. Sport-har qanday yoshda ham qaddi-qomatni tarbiya qilish, kuch-quvvatni saqlab turishning ajoyib vositasidir. Udam olish bilan mehnatni almashtirib turishga yordam beradi, ijodiy his-tuyg'u manbai bo'lib xizmat qiladi.

Qisqasi, jismoniy madaniyat va sport sog'lom, kuchli,chaqqon, topqir, to'siqlarni yenga oladigan, ona Vatanni ko'z qorachig'iday e'zozlovchi vatanparvar, kelajakka ishonch bilan



qaraydigan yoshlarni vujudga keltiruvchi ijtimoiy omillardan biri hisoblanadi. Shu sababli kishilik jamiyatining eng ibtidoiy holatidan hozirgi kunimizga qadar har qanday jismoniy kamolot va to`qlikni avlodlarning kamolotini ta`minlovchi zanjir deb hisoblab kelishgan. Demak, o`sib kelayotgan yosh avlodning jismoniy barkamolligini ta`minlash faqat ota-onasiga, maktabning ishigina bo`lib qolmasdan, balki u davlat ahamiyatiga molik ish hamdir.

**Foydalilanilgan adabiyotlar:**

1. A.D. Novikov A.P.Matveev jismoniy tarbiya nzaryasi va metodikasi.
2. J. Tolipova N.No'monova Ta'lim – tarbiya jarayonida zamonaliv pedagogik texnologiyalar.

# **ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 11-ҚИСМ**

**Масъул мухаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович  
**Мусаҳҳих:** Файзиев Фарруҳ Фармонович  
**Саҳифаловчи:** Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.07.2022

**Контакт редакций научных журналов.** tadqiqot.uz  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000